

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING TA'LIM JARAYONIDAGI ROLI

**Qurbanova Latofat Mamadiyorovna**

Jizzax politexnika instituti

E-mail: [latofatqurbanova@gmail.com](mailto:latofatqurbanova@gmail.com)

**Xamidov Sobir Xodiyevich**

Jizzax politexnika instituti

### ANNOTATSIYA

*O'qitish texnologiyasining maqsadi faqat bilim berishgina emas, balki aniq maqsad va natijalarga yo'naltirilgandir. Yana bir aosiy xususiyati mavjudki, pedagogik texnologiya qo'llanilganda turli xil yondashuv, turli xil vosita va usullardan foydalanilsa ham, bir xil natija olish mumkin. Bu texnologiya qo'llanilganda o'qituvchining ma'naviy intellektual ta'siri ostida har bir o'quvchining o'z imkoniyatlarini to'la ishga sola olishlari ta'minlanishi lozim.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsiya, samaradorlik, texnologiya, sifat, resurs, usul, vosita, ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik, psixologik, falsafiy, jarayon, milliy, demografik.*

## THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

### ABSTRACT

*The purpose of teaching technology is not only to impart knowledge, but also to be focused on specific goals and results. There is another main feature that when using pedagogical technology, the same result can be obtained even if different approaches, different tools and methods are used. When this technology is used, under the spiritual and intellectual influence of the teacher, it is necessary to ensure that every student can use their full potential.*

**Keywords:** *innovation, efficiency, technology, quality, resource, method, tool, social, economic, pedagogical, psychological, philosophical, process, national, demographic.*

Xozirgi zamon talabi ta'lim tizimi va jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash dolzarb masalalardan biriligi xammamizga ma'lum. Ta'lim jarayonining sifati unda qo'llaniladigan pedagogik va innovasion texnologiyalarning dars hamda mavzuga hamohang qo'llanilishiga bog'liq. Ta'lim bilan texnologiya chambarchas bog'liqdir.

Texnologiya grekcha "tecne"-san'at va mahorat, "logos"-ta'limot ma'nosini anglatib, u butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib bilimlar yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir. O'qitish texnologiyasining maqsadi faqat bilim berishgina emas, balki aniq maqsad va natijalarga yo'naltirilgandir. Uning yana bir asosiy xususiyati mavjudki, pedagogik texnologiya qo'llanilganda turli pedagoglar turli xil yondoshadi, turli xil vosita va usullardan foydalanilsa ham, bir xil natija olish mumkin. Xar qanday pedagogik texnologiya zamirida ilmiy asos, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik, psixologik va falsafiy zamini bo'lishi kerak. Bu texnologiya qo'llanilganda o'qituvchining ma'naviy intellektual ta'siri ostida har bir o'quvchining o'z imkoniyatlarini to'la ishga sola olishlari ta'minlanishi lozim. Oliy o'quv yurtlaridagi ma'naviy va ahloqiy muhit pedagog va o'quvchi shaxsining teng qo'llanilishiga imkon yaratishi kerak. Shaxsni bu xildagi ijtimoiylashtirishda farqli ravishda, milliy, tabiiy, demografik va ruhiy-fiziologik asoslarga, o'quvchilarning individual husussuyatlariga e'tibor beriladi.

Pedagogik texnologiyalar samarali ta'siri, dars sifatining yanada oshishi uchun moddiy texnik ta'minoti yuqori darajada bo'lishini, ta'limning mazmunini o'rgatish usuli o'qituvchi shaxsi bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Moddiy-texnik bazasi, ya'ni avditoriyalar, kutubxona, sport zali, ustaxonalardan tashqari zamonaviy pedagogik, psixologik, didaktik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop jurnallar,

gazetalar, badiiy adabiyotlardan foydalanish uchun boy fondga ega kutubxona bo'lishi kerak. Avditoriyalar eng yuqoti texnologiyalar bilan ta'minlanishi muhimdir. Demak, ta'limning har bir bosqichida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda jamiyat munosabatlarni isloh qilish, ya'ni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, ta'limni insonparvarlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadigan ilmiy-intelektual asosga ega bo'lgandagina qo'llash ijobiy samara beradi. Qo'llaniladigan texnologiyalar pedagog va o'quvchi hayotiga engillik olib kelishi, o'quvchining har bir fanni ixtiyoriy ravishda hohlab, qiziqib o'qishga imkon berishi, bu asosida yangi innovatsion g'oyalarni yaratishi va jamiyat taraqqiyotiga hamda rivojlanishga asosiy tamoyil bo'lish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnologiyalarni muvoffaqiyati yahlid ta'limiy jarayonni oldindan loyihalashga bog'liq. Shuningdek, ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikmlar va malakalar darajasini oldindan aniqlab olish muhimdir. Ta'limdan ko'zlangan maqsadga, natijaga qanchalik darajada etishish lozimligini bashorat qilaolishga ham bog'liqdir.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiya fan mavzulari bo'yicha oldindan loyihalanishi va uni o'qitish tekisligiga ko'chirilsa yakuniy natijani, yana o'quvchi o'quv materialning kamida 60-70 % ni o'zlashtirishini kafolatlashi kerak. Shu bilan bir qatorda har qanday pedagogik texnologiya asosini imliy jihatdan qo'yilgan didaktik jarayon tashkil etadi. Buning uchun pedagog o'z ustida ishlamo'g'i, ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning yangi innovatsion usullari bilan tanish bo'lmog'i, yangi yangi texnologiyalarni shakllantirmog'i hamda amaliyotda qo'llamog'i lozimdir.

O'quv jarayoning asosiy qismi talabalarning o'z-o'zini boshqarish jarayoniga sarf bo'lishi kerak. Talabalar bu bosqichda qo'shimcha axborotlar manbaiga murojot qiladilar. Bu manba o'qituvchi tomonidan yaratilib, uning tarkibiga darslik, qo'llanma, ishlanma, ma'ruzalar matni, monografiya, jurnal, gazeta maqolalari, o'qitishning texnik vositalaridan iborat bo'lib, ular oraqali talaba o'z ustida ishlaydi. Bunda vaqt sarfining o'qituvchi mavzuning xususiyatlariga va murakkabligiga qarab taqsimlaydi.

Bunday yondoshuv talabalarning nafaqat fanga va kasbga bo'lgan qiziqishini, mehrini oshiribgina qolmay, har bir talabalarning dunyoqarashini shakllanishiga, yangiliklar yaratuvchanlik qobiliyatini oshirishga hamda o'z kasbining etuk mutahasisi bo'lishiga zamin yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Davlatov K.D va b. *Mehnat va kasb ta'limi xamda metodikasi* //- T.: O'qituvchi 1992.
2. Xojaboyev A. Xusanov L. *Kasbiy ta'lim metodikasi* //T.: Fan va texnologiyalar, 2007.
3. *Institut professor-o'qituvchilarning ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy anjumani ma'ruzalar matni* // Toshkent viloyat davlat pedagogika instituti. Angren-2005.